

**O’QUVCHI - YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHDA JALOLADDIN MANGUBERDINING JASORATI**

O‘zbekiston Respublikasi IIVning Xorazm akademik litseyi Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Radjapova Fazilat Akbarovna

Annatatsiya: Maqolada mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog’lom barkamol avlodni voyaga yetkazishda Jaloladdin Manguberdining jasorati, Vatan qahramonligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, mustaqillik, milliylik, Xorazmshoh, Anushteginiy, Parvon dashti, G‘azna, Jaloladdin Manguberdi, Chingizxon, Alovuddin Muhammad, Oychechak, Sind (Hind) daryosi, Cho‘li Jaloliy, Ot sakrash, Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy.

Аннотация: В статье рассказывается о мужестве и героизме Джалалуддина Мангуберди в воспитании молодежи нашей страны в духе патриотизма, уважения к нашим национальным традициям и ценностям, воспитании духовно зрелого и физически здорового поколения.

Ключевые слова: Патриотизм, независимость, национальность, Хорезмшах, Ануштегини, Парванская степь, Газна, Джалалуддин Мангуберди, Чингисхан, Аловуддин Мухаммад, Айчечак, река Синд (Индийская), пустыня Джалали, Конные скачки, Шихобиддин ибн Ахмад ан-Насави.

Annotation: The article describes the bravery and heroism of Jalaluddin Manguberdi in raising the youth in our country in the spirit of patriotism, respect for our national traditions and values, bringing up a spiritually mature and physically healthy generation.

Key words: Patriotism, independence, nationality, Khorezmshah, Anushtegini, Parvan steppe, Ghazna, Jalaluddin Manguberdi, Genghis Khan, Alovuddin Muhammad, Aychechak, Sindh (Indian) river, Desert Jalali, Horse jumping, Shihobiddin ibn Ahmad an - Nasavi.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so‘z bilan aytganda ma’naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev - Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog’lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini

himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda. [1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-406-son)].

ASOSIY QISM

Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori, mohir sarkarda. Anushteginiylar sulolasining so'nggi hukmdori xorazmshoh Alouddin Muhammadning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi bo'lib, u qisqa vaqt umr ko'rsada tarix salnomalarida o'chmas iz qoldirgan Vatan qahramoni, mardlik timsolidir.

Jaloliddin 33 yil umr ko'rgan bo'lib, shundan 11 yili Vatan mudofaasi uchun turli janglar ichida o'tgan. To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi – Oychechak bo'lgan. Jaloliddinning burnida xoli (mank) bo'lgani uchun ham Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib „Manguberdi“ nomi bilan mashhur bo'lib ketgan [2.A.Muhamadjonov. O'zbekiston tarixi.-T.: 2017].

Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo'g'ul jangarilarining bosqinchilik yurishi Amudaryo janubidagi yirik savdo va madaniyat markazlari: Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'naltiriladi. Ammo bu viloyatda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydi.

Jaloliddin Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi hujum qilib, ularni tor-mor etadi. Bu Jaloliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yonni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azna yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin g'alaba qozondi. Biroq g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar qo'shindan ajralib ketadilar.

Jaloliddinning ularni qaytarish yo'lidagi urinishlari naf bermadi. Bu voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi zaiflashib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi va ajralib chiqqanlarni alohida-alohida tor-mor etadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib borib, Sind (Hind) daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi. Daryo bo'yida 1221-yilning 25-noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunlaydi. Jaloliddin taslim bo'lishni xohlamay otda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa suzib o'tadi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib oladi [3.A.Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. T.: Bayoz, 2019].

Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni “Ot sakrash”, narigi tomoni “Cho'li Jaloliy” deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon uni ta'qib qilish

fikridan qaytadi. Hatto, u o'g'illariga qarab: “Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim”, – degan ekan. Chingizxon bungacha hech bir shoh, hukmdor yoki sarkardaga tan bermagan va hech kimni o'ziga munosib raqib ko'rmagan edi.

Jaloliddin Manguberdi hukmronligi, uning mo'g'ul istilochilariga qarshi qahramonona kurashi hamda G'arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini kuzatish mumkin. Bu manbalar orasida Jaloliddin Manguberding shaxsiy kotibi (kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy qalamiga mansub “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimai holi”) nomli asar alohida o'rin tutadi.

Jaloliddin Manguberdi haqida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy o'zining asarida shunday yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. U mard, jasur bo'lib, sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi”. [4. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999]

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Jaloliddin Manguberding Vatan mudofaasi yo'lida qilgan qahramonligi va jasorati o'quvchi – yoshlarimizning ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, ota-bobolarimizning mashaqqatli mehnati evaziga bugungi tinch va osoyishta yurtida yashayotganligini anglab yetishda, mamlakatimiz sarhadlarini mustahkam qo'riqlashda muhim poydevor bo'lib hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-406-son].
2. A.Muhamadjonov. O'zbekiston tarixi.-T.: 2017.
3. A.Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. T.: Bayoz, 2019.
4. Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy. (“Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni”) Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. T., 1999.